



**RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION
INVESTITSIYANI BOSHQARISH ORQALI IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH LOYIHALARI**

Sabirov Umrbek Ismailovich

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya

Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada rivojlanayotgan davlatlarning innovatsion siyosatining shakllanish tendensiyalari va unda investitsion faoliyatning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Innovatsiyalarning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni va uning roli borasidagi ilmiy asarlar tadqiq etilgan. Tadqiqotlar asosida O'zbekiston sharoitida joriy etishga xos bo'lgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, investitsion faoliyat, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy xavfsizlik, barqaror rivojlanish maqsadlari, yuqori texnologiyalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada iqtisodiy xavfsizlik va innovatsion faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni to'g'risida hayotiy dolzarb masalalarni ta'kidlab o'tdi. Jumladan, "Biz o'zaro bog'liqlik, hamkorlik, muloqot va eng asosiysi, ishonch izchil va barqaror rivojlanish, mintaqalarimiz aholisining turmush darajasi hamda farovonligini oshirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishiga aminmiz. Bunday yondashuv – davr talabidir. Bularning barchasi bir tomondan, ziddiyat va ijtimoiy-iqtisodiy larzalardan xoli bo'lgan mintaqalararo hamkorlik va sheriklik maydonini, ikkinchi tomondan, mahsulotlar, xizmatlar, investitsiya va innovatsiyalarning keng bozori shakllanishi uchun zarur



sharoitlarni yaratadi¹”, deb ta’kidlab o’tganliklarini qyd etish lozim. Bu esa, mamlakatimizda innovatsion-investitsion faoliyatni tadqiq etish asosida rivojlantirishga bo’lgan talabni vujudga keltiradi.

Hozirgi innovatsion rivojlanish reytingiga e’tibor qaratsak, Xitoy Xalq Respublikasining tajribasi alohida ahamiyatga ega bo’ladi. Jumladan, Xalqaro innovatsion rivojlanish indeksining 2018 yilda e’lon qilingan hisobotida Xitoy 34 ta yuqori daromadli mamlakatlar ichida 17 o’rinda qayd etilgan o’rta daromaddan yuqori ko’rsatkichga ega bo’lgan yagona mamlakatdir. 2019 yilga kelib, Xitoy 14-pog’onaga ko’tarildi hamda Lyuksemburg, Yaponiya va Fransiya ortda qoldirdi. Xitoy eksporti tarkibi tahlili shuni ko’rsatdiki, tayyor mahsulotlarning jami eksportdagi ulushi 1978-2008 yillarda 50 dan 95 foizga o’sgan. O’tgan asrning 80-yillarida Xitoy eksportida mehnat sig’imi yuqori bo’lgan mahsulotlar asosiy o’rinni egallagan bo’lsa, 90-yillarning o’rtalaridan boshlab Xitoy eksportida ishlab chiqarish murakkab bo’lgan va katta kapital talab etadigan mahsulotlarga siljish kuzatila boshlandi. 2004 yilga kelib, tayyor mahsulotlar eksportida kapital sig’imi yuqori bo’lgan mahsulotlarning ulushi ilk marotaba mehnat sig’imi yuqori bo’lgan mahsulotlarga nisbatan ko’p bo’ldi.

Mazkur tarkibiy o’zgarishlar mamlakatda olib borilgan jadal sanoat islohotlari tufayli ro’y berdi². Ta’kidlash joizki, Xitoy uzoq yillar davomida ekstensiv iqtisodiy o’sish yo’lidan bordi va bu quyidagi natijalarga olib keldi:

- ishlab chiqarish samaradorligining keskin pasayishi;
- bankrotlik holatidagi korxonalarning ortishi va zarar hajmining ko’payishi;
- to’lovga layoqatsizlikning ortishi va natijada davlat qarzining o’sishi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Марказий ва Жанубий Осиё: минтакавий ўзаро боғлиқлик. Таҳдидлар ва имкониятлар” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи.
<https://president.uz/uz/lists/view/4484>

² Аъзам С.Э. Хитой экспорт сиёсати стратегиясининг замонавий тамойиллари ва ўзига хос жиҳатлари: и.ф.н. ... автореферат. – Тошкент: Жиду, 2010. – 27 б.



- ishsizlikning ortishi. 2006 yilda esa Butun Xitoy ilmiy-texnik s'ezdida mamlakatning mustaqil innovatsion rivojlanish pozitsiyasini mustahkamlashga e'tibor qaratildi va quyidagilarga ustuvorlik berish nazarda tutildi: mamlakatning xorijiy texnologiyalarga bog'liqligini 30 foizgacha pasaytirish, ilmiy-tadqiqotlarga YAIMga nisbatan xarajatlarini 2,5 foizga yetkazish va iqtisodiy o'sishda ilmiy sig'imkorlik ulushini 60 foizgacha oshirish. Xitoy iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlari, jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli kabi omillar olimlarning e'tiborini tortmoqda. Iqtisodiyot, texnika texnologiya va fan sohasida erishilayotgan yutuqlar Xitoyning o'rnini mustahkamlamoqda. O'tgan asrning 80-yillarida boshlangan iqtisodiy islohotlar bugungi Xitoyning jahonning eng yirik YAIMga ega ikkinchi davlatga aylanishiga shartsharoit yaratdi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi keskin burilishlar yirik miqdordagi jamg'arish (xususan investitsiya)lar, mehnat bozoridagi raqobat (arzon ishchi kuchi) va eksport ekspansiyasiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Xitoyda ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishda xususiy mablag'lardan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada, 2000 yillarga kelib Xitoyda yirik korporatsiyalar vujudga keldi va ularning ilmiy-tadqiqot markazlari o'z faoliyatlarini nafaqat Xitoyda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirishni boshlashdi.

Tabiiy fanlar milliy fondi faoliyati turli yo'nalishlarda olib boriladi. Ularning asosiylari sifatida tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, fundamental tadqiqotlar uchun talabgorlarni shakllantirish va infratuzilmani rivojlantirishni keltirib o'tish mumkin. Fikrimizcha, Xitoy mamlakatida tadqiqotlarni fundamental jihatdan rivojlantirishda mazkur fond o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, ushbu fondning istiqboldagi strategiyalari ham tadqiqotlarni rivojlantirishga, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Natijada, innovatsiyalarni yaratishga qulay shart-sharoit yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham Xitoy xalqaro innovatsion indeksda yuqori daromadli mamlakatlar orasida yagona o'rta daromadli mamlakat sifatida qayd etilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish, tibbiy xizmatlarni optimallashtirishga qaratilgan islohotlar oxirgi yillarda xalqaro indeksda alohida e'tiborga loyiq topildi.



Yuqorida keltirilgan yutuqlar, yuqori o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlarga erishishda Xitoy davlati tomonidan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, jumladan innovatsiyalarni moliyalashtirishni va bu jarayonni rag'batlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim rol o'ynadi. Xususan, Xitoyda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish yuzasidan 2007 yil 16 mart kuni qabul qilingan "Korxonalar foydasiga soliq" to'g'risidagi qonun alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra an'anaviy korxonalar foydasiga soliq 25 foiz bo'lsa, yuqori texnologik faoliyatni amalga oshiruvchilar uchun ushbu stavka 15 foizni tashkil qiladi. Mazkur stavkada soliq to'lash uchun korxona ilmiy-tadqiqotlarga jami xarajatlarning ma'lum ulushini, shtatdagilarning 50 foizdan ortig'i innovatsion faoliyatni amalga oshirishi, shuningdek, daromadlarning 50 foizdan kam bo'lmagan ulushini yuqori texnologik mahsulotlarni sotishdan olinishi lozimligi belgilangan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion-investitsion amaliyotga Xitoy tajribasidan kelib chiqib, quyidagilarni joriy etish zarur:

-yalpi ichki mahsulotga nisbatan tadqiqotlarga qilinadigan byudjet xarajatlari ulushini oshirish;

-innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan "Fan" nomli fondni tashkil etish va uning mablag'lari asosida tadqiqotlarni moliyalashtirishning metodologiyasini hayotga tatbiq etish. Natijada, davlat byudjetining "fan" yo'nalishidagi xarajatlarini yangi bosqichga olib chiqiladi;

-yuqori texnologik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik sub'ektlari uchun foyda solig'i stavkasini an'anaviy faoliyatni amalga oshiruvchilarga nisbatan past darajada belgilash. Fikrimizcha, innovatsion-investitsion faoliyatni tartibga solish va rag'batlantirish bo'yicha Xitoy tajribasining ilg'or jihatlarini inobatga olinishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda intensiv iqtisodiy o'sish tamoyillariga to'liq amal qilish zarur hisoblanadi.



O'zbekistonning yirik savdo hamkorlaridan biri Rossiya Federatsiyasi bo'lib, u iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Ushbu mamlakatning ham sohaga oid muvaffaqiyatli tajribalarining inobatga olinishi va o'ziga xos jihatlarning mamlakatimiz amaliyotida qo'llanishi ijobiy natijalarga sharoit yaratib berishi mumkin. Rossiya iqtisodiyotining neft va gaz mahsulotlariga bog'langanligini e'tiborga olinadigan bo'lsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish Rossiya iqtisodiy xavfsizligini zaiflashtiradi. Chunki, davlat byudjetining katta qismi, shuningdek, eksportning sezilarli ulushi tabiiy resurslarga hissasiga to'g'ri keladi. 2018-2019 yillar oralig'ida Rossiya eksportining 54 foizini (252.2 mlrd AQSH dollari) mineral mahsulotlar³ (neft va yoqilg'i mahsulotlari) tashkil etgan. Mazkur holat esa mamlakatning ekstensiv o'sish yo'lidan chiqib ketmayotganligini aks ettiradi. Rossiya iqtisodiy xavfsizligini innovatsiyalar sohasida ta'minlanishi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Bizningcha, Hindistonda alohida e'tibor bilan olib borilgan innovatsion investitsion siyosatning amalga oshirilishi makroiqtisodiy barqarorlikda o'zining ijobiy ta'sirini aks ettirdi. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos muhiti shakllandi. Mazkur davlatda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan jadal islohotlar asrimizning ikkinchi dekadasida boshlandi. Unda asosiy e'tibor global innovatsion indeks bilan ishlaydigan institutsional tuzilmaning shakllantirilishi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Hindistonda innovatsion-investitsion faoliyatning boshlanishi mamlakat mustaqillikka erishgan kundan boshlangan. 1966 yilda hukumat huzurida Ilmiy maslahat kengashi qo'mitasi tashkil etildi (Scientific Advisory Committee to the Cabinet). 1971 yilga kelib esa, Fan va texnologiyalar bo'yicha milliy qo'mitaga aylantirildi (National Science & Technology Committee). 2010 yildan keyingi islohotlarda esa mazkur qo'mita Milliy innovatsion kengash (National Innovation Council) nomi bilan qayta tashkil etildi.

³ <https://ru-stat.com/> сайт маълумотларидан фойдаланилган.



Umuman olganda, Hindistonda innovatsion-investitsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy faoliyat bo'yicha siyosatning uzluksizligi, ilmiy tadqiqotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi va moliyaviy manbalarning diversifikatsiya qilinganligi. SHuningdek, sanoat ishlab chiqarish va moliya institutlari bilan ilmiy tadqiqotlar muassasalari hamkorligi alohida e'tiborga molik. Natijada, 2011 yilga kelib Hindiston dunyoning uchinchi yirik iqtisodiyotiga aylanishga ulgurdi. Makroiqtisodiy jihatdan barqarorlikni ta'minlashda innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirilishi mamlakatni jahonning yetakchi iqtisodiga aylanishiga xizmat qildi. "Hind innvaotsion modeli" beshta parametrdan iborat bo'lib, ularga platforma, inklyuzivlik, ekotizim, drayver va diskurslik kiradi. Ushbu ustuvorliklar natijasida ilmiy-tadqiqotlarga qilinadigan xarajatlarning ulushini YAIMga nisbatan 2 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan. Shuningdek, hindistonlik ilmiy xodimlarning to'liq shtatda faoliyat yuritadiganlar ulushini 66 foizga yetkazish va dunyoning top-10talikdagi eng ta'sirli ilmiy jurnallarda hindlarning ilmiy nashrlari ulushini 2,5 foizdan 5 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, xusuiy sektor ulushini oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2005 yilda 25 foizni tashkil etgan bo'lsa 2019 yilga kelib 36,8 foizni tashkil etmoqda⁴. Umuman olganda, xususiy sektor ulushi sezilarli darajada o'zgarganligini qayd etish lozim.

2014 yilga kelib Hindiston tomonidan innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan turli loyihalar ishga tushirildi. Jumladan, Hindistonda ishlab chiqaring (Make in India), Start-ap loyihalar (Startup India Action Plan) va Texnologik strategiya 2035 (Technology Vision 2035) kabi dasturlar amalga oshirilishi boshlandi. Masalan, Texnologik strategiya 2035 dasturini amalga oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor berish belgilab berildi. Ekologik vaziyatni

⁴ Шавлай Э. П. Инновационная политика Индии: текущее состояние и особенности индийской модели // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2020. Т. 11. № 4. С. 370–383. <https://doi.org/10.18184/2079-4665.2020.11.4.370-383>



barqarorlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi, jamoat salomatligi va gigiyenasi, elektr va suv ta'minoti, xavfsiz transport tizimi va boshqa shu kabi holatlar shular jumlasiga kiritildi.

Qozog'istonda asosiy e'tibor sanoat tarmog'ida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratildi. Bunda qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati kabi o'rta darajali ilmiy sig'imkorlik mahsulotlari ishlab chiqarishga urg'u berildi. SHuningdek, qog'oz va nashr sanoati, to'qimachilik, kiyim-bosh, oziq-ovqat va mebel ishlar chiqarish kabi kichik ilmiy sig'imkorlik yo'nalishlari rivojlandi. Qozog'istonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari sifatida faoliyat boshlagan kompaniyalar yo'nalishlariga e'tibor qaratsak, og'ir sanoat tarmoqlari sezilarli ahamiyatga ega bo'lmoqda. 2020 yil aprelda keskin pasayish kuzatilgan, buning sababi, albatta, koronavirus pandemiyasining tarqalishi bilan bevosita bog'liq deb aytish mumkin. Qishloq xo'jaligiga nisbatan og'ir sanoat tarmoqlari soni kam bo'lsada, ularning soni barqaror ravishda o'sish trendiga ega bo'lmoqda.

Xulosa O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy etish uchun xorij tajribasidan kelib quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- O'zbekistonda og'ir sanoat sohasida innovatsion-investitsion faoliyatini rivojlantirish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyani qabul qilish;
- innovatsiyalarni joriy etishda iqtisodiyot tarmoqlarini quyi va yuqori texnologiyalar talab etadigan xususiyatlar bilan tizimlashtirish;
- kichik biznes sub'ektlari faoliyatida mavjud muammolarni bartaraf etishda inson kapitali va mablag'larni boshqarishning huquqiy-me'yoriy, tashkiliy iqtisodiy asoslarini yaratish lozim. Bunda innovatsion-investitsion faoliyatni shakllantirishda tarmoqlarda ilmiy sig'imkorlik darajasini tabaqalashtirish tizimini joriy etish. Tarmoqlarni ilmiy sig'imkorligi jihatidan tabaqalashtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz:
- yuqori texnologiyalar talab etadigan tarmoqlar
- bular uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishda ustuvorlik berish;
- o'rta darajada ilmiy sig'imkorlik talab etadigan tarmoqlar
- davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida moliyalashtirishning asoslarini yaratish;



- ilmiy sig‘imkorlik to‘liq talab etilmaydigan tarmoqlar

- xususiy sektorlar tomonidan moliyalashtirilishini belgilash va davlatning islohotchiligini nazarda tutish. Olib borilgan tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, O‘zbekistonda innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni kengaytirish muhim hisoblanadi. Bu borada, davlatning ham moliyaviy, ham huquqiy jihatdan qo‘llabquvvatlashi alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4484>
2. A‘zam S.E. Xitoy eksport siyosati strategiyasining zamonaviy tamoyillari va o‘ziga xos jihatlari: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: Jidu, 2010. – 27 b.
3. Polozyukova O.E. Puti realizatsii strategii innovatsionnogo razvitiya Kitaya//Проблемы экономики и менеджмента, 2011. -№3 - S.84-90
4. http://www.nsfc.gov.cn/english/site_1/about/6.html
5. <https://ru-stat.com>
6. Mityakov ye.S. Razvitiye metodologii i instrumentov monitoringa ekonomicheskoy bezopasnosti regionov Rossii: avtoreferat ... d.e.n. - Nijegorodskiy gosudarstvennyy texnicheskiy universitet im. R.E. Alekseyeva, Nijniy Novgorod 2018 – 48 s.
7. Bart A.A. Obespecheniye ekonomicheskoy bezopasnosti rossii v usloviyax formirovaniya innovatsionnoy ekonomiki: avtoferat ... k.e.n. - Ulyanovskiy gosudarstvennyy texnicheskiy universitet, Ulyanovsk, 2012. – S.19.